
Zarariq MFYda yangi kutubxona ishga tushirildi

Rishton tumani Zarariq MFYda tuman adliya bo'limi va 1-sonli kasb-hunar kolleji hamkorligida "Mahalla ziyo maskani" shiori ostida kitoblar jamlanmasini o'z ichiga olgan kutubxona tashkil qilindi.

Kutubxona ochilishida mahalla nuroniylari, maktab o'quvchi yoshlari, Adliya bo'limi vakillari va 1-son kasb-hunar kolleji xodimlari ishtirok etishdi.

Ochilish marosimida mahalla nuroniylari va mexmonlar so'z olib yoshlarga kitob o'qish mohiyatini, kitob ilm va ziyoga chorlashini, bo'sh vaqtlarini kitob o'qish bilan o'tkazish lozimligini ta'kidlashdi.

Mahalla raisi o'quvchi yoshlarga kutubxona imkoniyatlaridan bimalol foydalanishlari mumkinligini bildirdi.

Ochilish marosimidan so'ng yoshlar o'rtasida shashka va shaxmat musobaqasi o'kazildi va g'oliblarga kitoblar hadya qilindi.

2024-03-19 16:23:21